

## "TOSHKENT ETNOGRAFIK MUHITINI MUZEYLASHTIRISH JARAYONLARIGA OID LOYIHALARNING O'RGANILISHI (XX ASRNING IKKINCHI YARMI)"



**Munisa Sabirovna Mukhammedova**

Tarix fanlari bo'yicha PhD

Muzeeyshunoslik kafedrasi professori

Kamoliddin Bekhzod nomidagi Milliy san'at va dizayn instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-02-10>

**Annotatsiya:** Toshkent shahrining tarixiy-etnografik muhitini saqlab qolish jarayonlari 1960 yillar oxiriga kelib shakllana boshladi. Toshkent shahrida esa Ko'kaldosh madrasasi, Jome' masjidi ta'mirdan chiqarildi. Baroqxon madrasasi va Zangiota ansamblı ta'mirlanib 1966 yilda bu yerga ilmiy-ateistik muzey ekspozitsiyalari joylashtirildi. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallahuvi va demografik o'sishning turar-joyga bo'lgan talabning oshishi natijasida tarixiy mahallalar o'rniga ko'p qavatli binolar qurilishini talab eta boshladi. Madaniy turizmda foydalanish imkoniyatlari mavjud ob'ektlarni saqlab qolish esa bu jarayonda muammoli vaziyatga aylana boshladi, aholi eng ko'p zinch joylashgan Toshkent shahrining milliy me'morchilik an'analariga xos mahalliy turar joylardan iborat bo'lgan Eski shahar qismida 1976 yilda Milliy arxitektura va etnografiya muzeyini ochish rejalashtirildi. Aynan ushbu tarixiy jarayonlar tahlili ushbu maqola negizida batafsil ilmiy tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** tarixiy-etnografik muhit, madaniy turizm, muzeyleashtirish, milliy arxitektura, tarixiy madaniy meros ob'ektlari, mahalliy turar-joylar, muzey ekspozitsiyasi, urbanizatsiya jarayonlari, Gulbozor mahallasi, restavratsiya, konservatsiya, yodgorliklarni moslashtirish.

**Аннотация:** Процесс сохранения историко-этнографической среды Ташкента начал формироваться к концу 1960-х годов. В Ташкенте были восстановлены медресе Кокалдаш и Джума-мечеть, а также отреставрированы медресе Барокхон и ансамбль Зангита, и в 1966 году на этих объектах разместили научно-атеистические музейные экспозиции. Из-за ускорения процессов урбанизации и роста спроса на жилье в результате демографического роста началось строительство многоэтажных зданий, что привело к замене исторических кварталов. Сохранение объектов, имеющих потенциал для культурного туризма, стало проблемной ситуацией в этом процессе, так как в старом городе Ташкента, который был характерен для национальной архитектуры, планировалось открыть Национальный музей архитектуры и этнографии в 1976 году. Анализ этих исторических процессов подробно рассматривается в данной статье.

**Ключевые слова:** историко-этнографическая среда, культурный туризм, музеификация, национальная архитектура, объекты историко-культурного наследия, местные жилые дома, музейная экспозиция, процессы урбанизации, квартал Гулбозор, реставрация, консервация, адаптация памятников.

**Abstract:** The process of preserving the historical and ethnographic environment of Tashkent began to take shape by the late 1960s. In Tashkent, the Kokaldosh Madrasah and Jom'e Mosque were restored, while the Barokhon Madrasah and Zangiota ensemble were also renovated, and in 1966, scientific-atheistic museum exhibitions were placed there. Due to the acceleration of urbanization processes and the growing demand for housing resulting from demographic growth, the construction of multi-story buildings started to replace historical neighborhoods. The preservation of objects with potential for cultural tourism began to turn into a problematic issue in

this process, as the densely populated Old City area of Tashkent, which was characterized by local housing reflecting national architectural traditions, was planned to house the National Museum of Architecture and Ethnography in 1976. The analysis of these historical processes is thoroughly explored in this article.

**Keywords:** historical-ethnographic environment, cultural tourism, museumification, national architecture, historical and cultural heritage objects, local housing, museum exposition, urbanization processes, Gulbozor neighborhood, restoration, conservation, adaptation of monuments.

Arxitektura yodgorliklari tarixiy meros ob'ektlari sifatida hududning madaniy kontekstini belgilaydi. Toshkent shahridagi tarixiy ijtimoiy-madaniy vaziyatlarni turli yodgorliklarda ko'chmas muzeyleshirilgan ob'ektlar asosida turistik marshrutlar yaratish, ekskursiyalar tashkil etish muhim jarayonlardan sanaladi. Me'moriy yodgorliklar maxsus qonunlar asosida yashaydi, ularni vujudga keltirgan madaniyatning tabiatidan dalolat beradi va zamonaviy insonning tarixiy an'analarga aloqadorligini belgilaydi. Bu borada Toshkent shahridagi Polovsev uyi va Romanov saroyi noyob muzeyleshirilgan ob'ektlar sirasiga kiradi. 1970 yillarga kelib, Toshkentning XIX–XX asrlarga oid tarixiy turar joylarining saqlanish holati o'rganilib, etnografik hudud muhofaza zonasini loyihalashtiriladi. Bu orqali sayyoohlар mahalliy aholining urf-odatlari, etnografik muhiti, mahalliy me'morchilik uslublari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Ushbu loyiha tarixiy mahalla hududlarini muzeyleshirish va sayyoohlidka samarali tadbiq etish borasidagi muvaffaqiyatli loyiha bo'lishiga qaramay, moliyalashtirish masalalaridagi muammolar sababli amaliyotga tadbiq etilmadi. 1985 yilga kelib Toshkentning Eski shahar qismidagi turar joylarni Etnografiya va maishiy turmush muzeylema aylantirish masalasi qayta ko'rib chiqildi.

Research methodology. L. Bogdanov va A. Baburov izlanishlaridaa muzeey qo'riqxonalarning madaniy turizm infrastrukturasiyagi iqtisodiy tomonlari xorij amaliyoti misolida tadqiq etilgan bo'lib, hududlarning muzeyleshirishi va ekskursion byurolar tomonidan sayyoohlilik marshrutlari faoliyati ham keltirib o'tilgan. A.Ikonnikovning tadqiqotlarida tarixiy shahar muhitini mukammal loyihamos asosida shakllantirish va muhofaza hudularini yaratishdagi muammoviy holatlari tanqidiy ko'rib chiqilgan bo'lib, O'rta Osiyoda hali muzeey qo'riqxonalarning tashkil etilmaganligi jarayonlariga salbiy baho berilgan. O'zbekiston shaharlaridagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish va ularni saqlash, muzeyleshirish, yodgorliklar konservatsiyasi, restavratsiyasi hamda ulardan turizm infratuzilmasida foydalanish masalalari qator maqolalarda ham aks etgan. Ammo ushbu tadqiqotlarda turizm masalasi asosan g'oyaviy-siyosiy yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib o'tilgan, lokal va hududiy xususiyatlar umumiy holatda baholangan.

Results and Discussions. Arxitektor A.A. Burmeyster tomonidan loyihalashtirilgan mahalliy ustalar bilan hamkorlikda M.S. Andreev tomonidan 1902 yilda qurilgan Polovsev uyi ham Toshkent shahridagi birinchi muzeyleshirilgan ob'ektlardan sanaladi. 1906 yilda Polovsev Bombeyga bosh konsul etib tayinlanishi bilan 1910 yilgacha uning qarindoshlari vaqtinchalik istiqomat qilib turib keyinchalik sotib yuboriladi. 1918 yilda esa shahar uy-joy fondi mulkiga aylantiriladi. 1938 yilgacha bu ob'ektda Bolalar uyi, pedagogika texnikumi binosi sifatida ham foydalaniladi. 1937 yildan Muzey narodnogo xozyaystva Uzbekistana otdel kustarnyx remeselga doimiy ko'rgazma ob'ekti sifatida ajratiladi. 1939 yildan esa Amaliy san'at ko'rgazmasi sifatida foydalanila boshlandi. Shu yildan ushbu ob'ekt restavratsiyasiga 168 ming rubl ajratiladi. Ta'mir ishchi guruhi esa Rassomlar soyuzi va Arxitektorlar soyuzi mutaxassislari asosida N.N. Sharstnev raisligida ish olib boriladi. Ishchi guruhi tomonidan bezak qismlarining fotofiksatsiyasi tayyorlanadi, katta zal va ayvon qismidagi keramik plitalarning buzilgan qismi qayta tiklanadi. Ikkinci restavratsiya bosqichi esa 1941 yil aprel oyida olib boriladi. Ta'mir jarayonlariga xalq ustalaridan naqqosh K. Alymdjanov, ganch o'ymakori Usta Vakil jalb etiladi. Natijada muzeyleshirilgan ob'ektning katta zalidagi dekorativ panolar kir va changdan tozalanadi, yo'qotilgan qismlari qayta tiklanadi.

1950 yilda yong'in oqibatida ayvонniy g'arbiy qismi shikastlanadi va bitta kolonna yonib ketadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Toir To'xtaxodjaev tomonidan 1961

yilda esa ayvon va xonalarning shift qismlari, 1971 yilda ayvon ustunlari, 1973 yilda esa V.Karimov bilan hamkorlikda 20 kvadratga yaqin dekorativ bezaklar usulbini saqlagan holda qayta tiklanadi. 1970 yilda ta'mir jarayonlari bilan birgalikda muzeyning zamonaviy asosdagi qo'shimcha binolari asosiy qismning ikki yon qismlariga qurib bitkaziladi.

O'zbekiston amaliy san'ati muzeyi 1980 yillarga kelib Toshkent shahridagi eng ko'p turistlar tashrifi qayd etilgan muzeylardan sanalar edi. O'zbekiston amaliy san'ati muzeyi ekspozitsiya zallarida XIX asrning oxiridan to shu kungacha yaratilgan xalq amaliy san'atining noyob namunalari jamlangan edi. Muzey 1937 yilda tashkil topgan bo'lib bo'lib, o'sha yili bu yerda hunarmandlar ko'rgazmasi bo'lib o'tgan edi. Ana shu ko'rgazma eksponatlari muzey tashkil etilishiga asos bo'ldi. Muzey eksponatlari shartli ravishda 10 bo'limga bo'lingan bo'lib. Ekskursiya matni rus tilida Rahima Azizzo'jaeva tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tarjima variantlari ingliz, fransuz va nemis tillarida ham tayyorlangan edi. Muzeyning umumiy ekspozitsiya qismi 1400 kvadrat metrga joylashtirilgan bo'lib i rejada 90 yillarga adar 6 ming kvadrat metrga kengaytirish ham ko'rib chiqildi. Turistlar oqimining ko'pligi milliy amaliy san'at namunalari bilan qiziqishar edi. Ekspozitsiyada 1937 yili Parijda, 1939 yili esa Nyu Yorkda o'tkazilgan jahon ko'rgazmalarida Katta oltin medal va Oliy mukofot diplomi olgan hamda 1958 yilda esa Bryusselda ochilgan xalqaro ko'rgazmada Katta bronza medali olgan kashta namunalari sayyoohlarda katta qiziqish uyg'otdi. Uch gruppaga bo'lingan tomoshabinlar ekskursiya jarayonida 1987 yili muzey binosining tarixiy qismida ishlatilgan yog'och bezaklari va furnituralari bo'yicha ham restavratsiya ishlari tashkil etiladi. Natijada tarixiy binoning eshiklari, yog'och derazalari, pol qismlari sifatli ta'mirdan chiqarildi.

1987 yilda esa yodgorlikning turistik yo'nalishini tashkil yetish bo'yicha takliflar dastlabki ma'lumotlarga muvofiq va yodgorlik atrofidagi vaziyatni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Yodgorlikni muhofaza qilish zonasasi 24,6 hektar maydonni egallar edi. Loyiha muallifi M.Skovorov tomonidan qabul qilingan asosiy chora-tadbirlar sayyoohlar oqimini texnologik jihatdan qulay yo'naltirishga hissa qo'shadigan jihatlarni o'rgangan holda yaratilgan edi. Sayyoohlar bilan sayyoohlilik avtobuslari maxsus moslashtirilgan avtoturargohga joylashtirilishi, u yerda sayyoohlarning umumiy guruh asosida yig'ilishi darkor edi. Avtoturargohdan yodgorlikgacha obodonlashtirilgan yondashuvlar ham taqdim yetiladi. Bundan tashqari, yodgorlik uchun yong'inni bartaraf etish qismi va tez yordam punkti yaratish ham taqdim etildi. Yirik sanoat va madaniyat markazi hisoblanmish Toshkent uchun sayyoohlarda sanoat birlashmalari, yirik ilmiy va madaniy tashkilotlar, muzeylar, zamonaviy ko'chalar va maydonlarda bo'lish ehtiyoji tug'ilari edi.

Toshkent shahri oldingi K. Marks xozirda Sh.Rashidov ko'chasida joylashgan Knyaz Romanov majmuasi XIX asrning 80 yillarida injener V.S.Gendelman tomonidan knyaz Romanov uchun qurilgan edi. Markaziy saroy binosidan tashqari saroyning sharq va g'arb tomonlari ham ikkita T simon bir qavatli binolar bilan birga qurilgan. Unga yondosh qismdagi qurilishi jarayonida saroyning g'arb tomoniga qurilgan bir qavatli bino olib tashlanadi. Saqlanib qolning sharqiy tomondagи bir qavatli binolar hozirda fligel deb nomlangan. Fligelning me'moriy konstruktiv hususiyati bu, saroy xizmatchilari yashash joyi bo'lgan va shu binoning shimoliy qismi esa otxona joylashtirilgan. Binoning fundamenti va asosi (sokol) pishgan g'ishtdan qurilgan bo'lsa, bino devorlariga esa xom g'isht ishlatilgan. Bino qurilishida reykali balkalar ishlatilgan bo'lsa, potologi ganchli dekorativ karnizlar bilan ishlov berilgan. Bino tom qismida ishlatilgan bargsimon panjaralar yillar o'tgan sari yaroqsiz xolatga kelganligi sababli, binoning fligel qismi bir necha bor ta'mirlangan va o'zining birinchi qiyofasini saqlab qolmagan. Bino shu yilgacha o'zining 50 foiz qiyofasini yo'qotgan. Bunda eng katta zarar ko'rgan joyi bu xom g'isht ishlatilgan qismlari, yog'och to'sinlar va yon qanotlari hisoblanadi.

1918 yildan 1935 yilgacha knyaz Romanov rezidensiyasining o'rnda san'at muzeyi o'z faoliyatini olib borgan bo'lsa, 1935 yildan esa bu rezidensiya shahar pionerlar va o'quvchilar saroyiga berilgan.

1917 yil 12 dekabr kuni N. K. Romanov ikkinchi marta vasiyat (birinchi vasiyat 1908 yil yozilgan bo'lib, u ham shu manoda yozilgan bo'lgan) qoldiradi. Vasiyatida yozilishicha, u o'zi

yashab kelayotgan saroyini birinchi xotini Nadejda Aleksandrovna Iskandarga, uning o‘limidan so‘ng esa Toshkent Universitetiga vasiyat qilingan. Revolyusiyadan so‘ng, 1918 yil 19 aprel sanasida Sovnarkom Turkiston o‘lkasi va ta’lim komissariati qaroriga binoan: “Knyaz Nikolay Konstantinovich Romanovning avvalgi saroyi Turkiston xalq universiteti muzeyiga aylantirilishi” yozilgan. N. A. Iskander umrining so‘nggi yillarigacha bu muzey direktori sifatida faoliyat yurtdi. 1924 yil Sredazkomstaris bazasida Markaziy tasviriy san’at muzeyini ochdi va bu muzey o‘z faoliyatini 1933 yilgacha davom ettirdi. Bundan so‘ng bino Respublika pionerlar saroyiga berildi.

O‘zbekiston Ministrler Sovetining 1984 yilning 19 martdagি №23-28-14 sonli qaroriga asosan Qabullar uyi (Pionerlar saroyi) UzSSR Davlat San’at muzeyiga filial sifatida beriladi. Bu yerda muzeyning Antikvar-zargarlik fondi ko‘rgazmasi tashkil etilishi nazarda tutilgan edi. Bu davrda muzeyning 3 ta filiali mavjud bo‘lib, O‘rol Tansiqboev uy muzeyi, Gilamlar va so‘zanalar ko‘rgazmasi va Romanov saroyi. Antikvar-zargarlik fondi ko‘rgazmasi 899, 25 m<sup>2</sup> tashkil etib, 376m<sup>2</sup> 9 ta xona ekpozitsiya uchun va umumiy 123m<sup>2</sup> ega 6 ta xona xodimlar uchun ajratilgan edi. Muzeyni qo‘riqlash tizimini tashkil etishda Ermitajning zargarlik ashyolari fondi, Orujeynaya palata va Tbilisining oltin xazinaxonasi fondlarining tajribasi ham o‘rganildi. Antikvariat va zargarlik san’ati muzeyi nomi va mustaqil badiiy va ilmiy muzey statusi 1988 yil may oyida O‘zbekiston SSR Madaniyat vazirligining 1988 yil 25 may № 18 sonli qarori bilan tasdiqlandi. Rasman muzey o‘z faoliyatini deyarli 1988 yil 25 maydan boshladi. Muzey hududdagi yagona shu tipdagи muzeylardan sanalar edi. Bu yerda ilmiy, tarixiy va badiiy ahmiyatga ega xalq amaliy bezak san’ati namunalari, qimmatbaho metall va toshlardan ishlangan zargarlik buyumlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 16 yanvardagi №35 sonli qaroriga binoan muzey faoliyati tugatildi.

1986 yildan Toshkentning Eski shahar qismi “Shahriston” davlat tarixiy me’moriy va etnografik muzey qo‘riqxonasi nomiga ega bo‘lishi kerak edi. Bu jarayon 1982 yil 1,3 mart O‘zbekiston madaniy yodgorliklarini konservatsiyalash va ta’mirlash instituti va 1982 yil 12 martdagи Shaharsozlik me’morchiligi kengashi yig‘ilishidagi №62 sonli protokolida tasdiqlandi. Ushbu loyihaning tezlikda tasdiqlanishiga sabab, autent hudud maqomiga ega bo‘lgan eski shahar ko‘rinishini yo‘qotib qo‘ymaslik XIX asr oxiri va XX asr boshidagi Toshkent xalq me’morchiligining arxitekturada foydalananilgan an’analari va uslubini saqlab qolish edi. Bu proekt qadimiy mahallalar ko‘rinishidagi Toshkentning milliy tarixiy koloritini ifoda etar edi. Unda turar joylarning joylashuvi, o‘ziga xos grafik chizmasi, me’morchilik uslublari, o‘ziga xos soya va nur o‘yinlari, yog‘och ustunlarning qo‘llanilishi, devorlarda ganch va somon suvoqlardan foydalanganligi, eshiklarda yog‘och o‘ymakorlik amaliy bezak san’ati ifodasi kabi bir nechta narsalar asos bo‘ldi.

Barcha tanlab olingan 11 ta an’anaviy turar joy binolari ro‘yxati shakllantirilib, ham muzeylashtirish takliflari asosida ularni mustahkamlashda zamonaviy qurilish materiallari va konstruktiv elementlardan foydalangan holda qadimgi quruvchilarning tajribasiga asoslangan seysmik qurilish normalarini ham taqdim etish lozim bo‘lgan edi.

O‘n bitta zamonaviy turar joy binolarini etnografik va maishiy hayot muzeyiga o‘tkazish va moslashtirish loyihasi zamonaviy madaniy turizmnning barcha talablariga javob berishi va ochiq osmon ostidagi me’moriy etnografik muzeyni tashkil etishda halqaro tajribadan foydalanishdan iborat bo‘lgan.

Etnografiya va maishiy hayot muzeyiga aydantirish uchun taqdim etilayotgan quyidagi turar joylar ro‘yxatini shakllantirdi :

1. Qorasaroy ko‘chasidagi №5 uyni muzeyning ma’muriy xo‘jalik qismi uchun;
2. Paxta ko‘chasidagi №16 “Sinchkor” uyi;
3. Katta bog‘ko‘chasi №22 “Taroqchi” uyi;
4. Xamza ko‘chasi №27 “Savdogar” uyi;
5. Sag‘bon ko‘chasi 1chi berk ko‘cha № 95 “Tomoshaqovoqdan tayyorlangan buyumlar ustasi” uyi;
6. Xurshida ko‘chasidagi 105 Oshpaz uyi ;
7. Qorasaroy ko‘chasi № 32 “Naqqosh” uyi;

8. “Katta bog” ko‘chasidagi №40 Kulol uyi;
9. Katta bog‘ ko‘chasidagi №47 Duradgor va tikuvchi uyi;
10. Samarqanda darvoza ko‘chasi № 14 “Nonvoy” uyi;
11. Darxon ko‘chasi №85 “Zargar” uyi.

Shuningdek loyihada muzey asosida savdo hunarmandchilik do‘konlari Toshkent esa sayyoohlar uchun kulolchilik san’ati maktabining namunalaridan taklif etadi. Zargarlik, misgarlik mahsulotlari, “Burchakli”, “Yurmado‘zi”, “Chorchum” deb nomlangan Toshkent do‘ppilari, yog‘och o‘ymakorligi namunalarining namoyishi uchun ustaxona-do‘konlar tashkil etildi va qisman faoliyat olib bordi.

“Gulbozor” masjidi esa Toshkentning eski shahar qismida Gulbozor mahallasida, Haqiqat proezdi Uyg‘ur ko‘chasida joylashgan edi. Taxminan bu masjidning qurilishi XV asrga oid edi. Qubbali masjidga uchta yog‘ochli ustunli ayvon yopishgan. Masjid deyarli kvadrat asosda baquvvat devorlar bilan qurilgan. Sharqiy tomonda mehrobga ega bo‘lib, masjid 2 qavatga bo‘lingan edi. Birinchi qavatning devorlarida oyna va eshik o‘yiplari mavjud (keyingi davrda qilingan bo‘lsa kerak). Ikkinci qavat esa to‘rtburchak shaklda qurilgan edi . Eski shaharning tarixiy qismlarini tiklashda va uni qo‘riqxona zonasiga aylantirishda “Gulbozor” masjidini o‘rn katta bo‘ldi. Uning me’moriy shakli Jom‘e masjidi bilan bir majmua bo‘lib shakllanib, qadimiy me’moriy qurilma koloritini saqlab qolgan edi. Hajm bo‘yicha u Toshkentdagi eng katta juma masjidlari ichida uchinchi o‘rinda turar edi. Jom‘e masjidi bir necha marta ta‘mirlangani uchun xozirgi kunga kelib, o‘z ko‘rinishini ancha o‘zgartirgan. Bu loyihaning asosiy maqsadi, oldin masjid bo‘lib xizmat qilgan me’moriy yodgorlikni “Mehnat va maishiy turmush” etnografiya fondi va ko‘rgazmalar zali, shuningdek u ashyolarni ta‘mirlash ustaxonalariga aylantirishdan iborat bo‘ldi . Ko‘rgazma zaliga aylantirishdan maqsad, nafaqat ko‘rgazmalar bilan 1976 yili bu masjidni ta‘mirlash loyihasi ishlab chiqilganda etnografiya fondi va ko‘rgazmasiga aylantirishni ham nazarda tutilgan edi. Bu loyihada masjidning gallereya qismiga etnografiya fondi va ko‘rgazmasi, hamda mahalliy ustalarining ustaxonalarini joylashtirishga moslandi . Ammo bu ishlarning to‘liq amalga oshirilishi markaz tomondan mablag‘ ajratilmaganligi uchun bajarilmay qolib ketdi. 2024 yilga kelib aynan Gulbozor mahallasida bu yerga yilning barcha mavsumida xorijiy sayyoohlar ko‘p kelishini inobatga organ holda hudud turizm xizmatlariga ixtisoslashtirildi.

2019 yilning avgust oyida me’moriy merosni saqlash bo‘yicha mutaxassis, Germaniya ICOMOS milliy qo‘mitasi a’zosi Yens Yordan Toshkentning tarixiy qismidagi yodgorliklarning buzilishi o‘zbek xalqining turmush tarzi va madaniyatiga oid qimmatli dalillarni yo‘q qiladi deb yozgandi . Bugungi kunga kelib, 1980 yillarning o‘rtalaridan boshlab ushbu hududda ro‘yxatga olingan turar-joy binolari yoki muhim binolar soni 818 tadan 146 ta uygacha qisqargan.

2022 yilga kelib Toshkentning eski shahar hududidagi mahallalari UNESCO tomonidan Butunjahon madaniy merosining birinchi dastlabki reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi. Eski shahar mahallalari madaniy qatlamlarini saqlab qolish bo‘yicha dastlabki qadamlar 2019 yilda Venesiya arxitektura biennalesida taqdim etilgan “Mahalla: shahar va qishloq hayoti” loyihasi ishlab chiqilganda ko‘rib chiqilgan edi . «La Biennale Di Venezia» xalqaro arxitektura biennalesida O‘zbekiston Milliy pavilonining birinchi loyihasi turizmni rivojlantirishda boy me’moriy merosi va zamонавиy madаниy, akademik va professional yutuqlari xalqaro muloqotning to‘liq ishtirokchisi bo‘lish, samarali madaniy almashinuvni amalga oshirish, xorijiy ekspertlarni dolzarb mintaqaviy va global masalalarni muhokama qilishga taklif qilish imkoniyatlarini taqdim etdi . Toshkent mahallalari xalqaro ekspertlar tomonidan eko-arkitekturani tiklash, zamонавиy shaharlarni ommaviy urbanizatsiyadan asrash, shuningdek, ijtimoiy qadriyatlar va jamoaviylikni saqlab qolish usuli sifatida e’tirof etildi. Arxitektura doktori Mavluda Yusupovaning qayd etishicha, “Toshkent mahallalari O‘zbekistonning boshqa hududlaridan farqli o‘laroq o‘zining autentikligini ko‘proq saqlab qolgani uchun ham noyobdir, shu bois ham tarixiy me’moriy qo‘riqxona sifatida saqlanishga ehtiyoji bor” .

**Conclusion/Recommendations.** Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi UNESCO bilan hamkorlikda yetakchi olim, mutaxassis, arxitektor va tadqiqotchilarni birlashtirdi. Tabiiyki, ushbu hududda hech qanday investitsiya qurilish loyihalarini amalga oshirishga yo‘l

qo‘yilmaydi. Bu - Toshkentning tarixiy markazi bo‘lgan qadimiy Zarqaynar ko‘chasi taqdiriga xech kim - jamoatchilik vakillari, faollar, jurnalist va blogerlar befarq emasligi natijasidir. Shuningdek, mahallani asrab qolish loyihasini qo‘llab-quvvatlagan hamda uni Butunjahon tabiiy va madaniy merosi ro‘yxatiga kiritgan UNESCO tashkilotining e’tiboridir. 2022 yil 21 yanvarda esa O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 21 yanvar kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bir qator loyihamalar bilan tanishish jarayonida mahallalar hududi bo‘yicha Zarqaynar Street Renovation loyihasi taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Loyihada poytaxtning Eski shahar hududidagi Zarqaynar ko‘chasini ta’mirlash va «Eski shahar ruhini asrab-avaylagan holda» turistik markaz tashkil etish ko‘zda tutilgan. 2020 yilning mart oyida Toshkentning Eski shahar qismini tarixiy sharoitda turizm va savdo hududiga aylantirish loyihasi taqdim etilgan edi. Unda Eski shaharda Icheri Sheher (Ozarbayjon), Msxeta (Gruziya) va Eskishehir (Turkiya) eski turar joylariga o‘xshash savdo va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarini qurish nazarda tutilgan edi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida XIX asrga tegishli bir qator me’morchilik yodgorliklari zamonaviy vazifalar uchun moslashtirilsa-da, turli tashkilotlar tomonidan asosiy bino sifatida ijaraga olingan tarixiy yodgorliklarni qayta ta’mirlashga e’tibor qaratilmadi. Tarixiy yodgorliklardan turizm ob’ekti sifatida foydalanish, zamonaviy moslashtirish prinsiplari afzalliklari va qulayliklari loyihalash asosida san’atshunos, restavrator va arxitektor tomonidan uning utilitar qiymati tasdiqlangandan so‘ng amalga oshirilishi maqsadga muvofiq edi. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi, zamonaviy turizm industriyasining sovet davlati manfaatlariga bo‘ysundirilishi respublikada ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun muhim jihatlardan hisoblangan tabiiy iqlim sharoitlari, qadimiy me’moriy obidalar ko‘lami, etnografik hamda tarixiy o‘ziga xosligi, turli davrga oid madaniy yodgorliklarning mavjudligiga qaramay, bu sohani iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylanishiga to‘sinqinlik qildi.